

TUPROQ UNUMDORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI VA XARITASINI TUZISH USULLARI.

Boboyev Farrux Farxodovich

Qarshi Davlat universiteti O'qituvchisi

Annotatsiya: Dunyoda tuproq unumdorligi holati, uning ko'rsatkichlari, tuproq unumdorligining boshqa omillar bilan o'zaro aloqadorligi va tuproq unumdorligini modellashtirish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bundan tashqari, tuproq xossa-xususiyatlarini o'rganish, tuproq unumdorligini baholash, oshirish va boshqarishda zamonaviy geoaxborot texnologiyalaridan foydalanilmoqda va tegishli ishlanmalar ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Tuproqlarni batafsil masshtabli xaritaga tushirishda ma'lum hududning tuproq qoplami batafsil va katta aniqlikda yoritilgan holda o'rganilib, reja va xaritalar tuziladi.

Kalit so'zlar: Tuproq-iqlim, relief, yer tuzish, reja, sifat ko'rsatkich, agronomik xarita, struktura, och tusli bo'z tuproq.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ПЛОДОРОДИЯ ПОЧВ И МЕТОДЫ КАРТОГРАФИРОВАНИЯ.

Бобоев Фаррух Фарходович

Преподаватель Каршинского государственного университета

Аннотация: В мире ведутся научные исследования по ряду приоритетных направлений, посвященных состоянию плодородия почв, его показателям, взаимосвязи плодородия почв с другими факторами и моделированию почвенного плодородия. Кроме того, для изучения свойств почв, оценки, повышения и управления плодородием почв применяются современные геоинформационные технологии, соответствующие разработки внедряются в производство. В процессе детального картографирования почв почвенный покров определенной территории детально и с высокой точностью изучается, составляются планы и карты.

Ключевые слова: Почвенно-климатические условия, рельеф, землеобразование, план, бонитет, агрономическая карта, структура, светлая серая почва.

WAYS TO INCREASE SOIL FERTILITY AND METHODS FOR MAPPING.

Boboyev Farrukh Farkhodovich
Teacher, Karshi State University

Annotation: Scientific research is being conducted worldwide in a number of priority areas focused on soil fertility, its indicators, the relationship between soil fertility and other factors, and soil fertility modeling. Furthermore, modern geoinformation technologies are being used to study soil properties, assess, improve, and manage soil fertility, and the corresponding developments are being implemented in production. Detailed soil mapping involves a detailed and highly accurate study of the soil cover of a given area, and the creation of plans and maps.

Keywords: Soil and climatic conditions, relief, land formation, plan, land classification, agronomic map, structure, light gray soil.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda respublikamiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishda tuproq unumdorligini oshirish, uning holatidan kelib chiqib qishloq xo'jaligi yerlariga ishlov berish va agrotexnik tadbirlarni qo'llash o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini uchinchi yo'nalishi-milliy iqtisodiyotni, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor vazifalardan iborat. Shuningdek, qishloq xo'jaligida erkin raqobatni taminlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish, xususan, paxta va g'alla yetishtirishda davlat buyurtmasini bekor qilish orqali ishlab chiqarishda iqtisodiy samaradorlik va mahsulot ishlab chiqaruvchilar manfaatdorligi oshirilishi» xaritografik ma'lumotlarni ajratib oladi va tuproqni o'rganish ishlarini maqsadiga va masshtabiga, ularning sifati to'g'ri kelishkelmasligini baholaydi va xaritaning saqlanishini ta'minlaydi.

Respublikamizning ko'p hududlarida och tusli bo'z tuproqlar tarqalgan va tuproqlarni o'rganish uchun tuproqshunoslarga reja-xaritografik asoslarni beradi va reja-xaritografik asoslarni ko'paytirishni tashkil qiladi. Maboda topografik asoslarni aniqlash kerak bo'lib qolsa, uni aniqlaydi va xarita tuzish ishlarini bajaradi. Yer tuzuvchi tuproqshunos bilan, tuproq otryadi agronomi va xo'jaliklarning agronomlari bilan birgalikda qishloq xo'jalik ekinlarini aniq joylashtirish maqsadida almashlab ekish tartibini va tadbirlarini ishlab chiqadi.

Shundan kelib chiqib, tuproq unumdorligini oshirish, yer resurslaridan samarali foydalanish va ilg'or agrotexnik tadbirlarni ishlab chiqishda tuproqlar unumdorligini ilmiy asoslangan holda boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproq xaritogrammasi qishloq xo'jalik dalalarini tuproq xaritasi masshtabida chizilgan tasviridir. Ular tuproqning ayrim xossalarni aniqroq izohlash (gumusli qatlamning qalinligi, mexanik tarkibi, yemirilganlik va sho'rlanish darajasi va h.k.) tuproqdan foydalanishga oid tavsiyalarni aniqlash, ekinlarini joylashtirishda ishlatiladi. Tuproq xaritogrammalari tuproq tarkibidagi azot, fosfor, kaliy va boshqa moddalarning miqdorini ham tasvirlaydi (agrokimyoviy xaritogrammalar). [1].

Tabiiy va agroiqtisodiy sharoitni o'rganish. Tayyorgarlik davrining asosiy vazifalaridan biri hisobot va adabiyotlardagi ma'lumotlardan foydalanib, o'rganiladigan joyning tabiiy va agroiqtisodiy sharoitini o'rganishdir. Bunda ishni bajaruvchi mutaxassislar o'rganilayotgan joyning tabiiy geografik sharoiti (geomorfologiya va rel'ef, iqlim, geologik sharoit, gidrologik xususiyatlari, o'simliklar dunyosi, tuproq qoplamini hamda xo'jalikning qaysi sohaga ixtisoslashganligini va iqtisodiy holatini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni to'playdi. Eng muhim ma'lumotlar ilmiy-tadqiqot institutlarda, rejalashtiruvshi tashkilotlarda, tajriba maskanlarida bo'ladi. Bunda hisobotlarni ko'rib chiqish bilan bir qatorda xaritografik ma'lumotlarni to'plashni ahamiyati ham katta. Ayniqsa tajriba markazlarida, nav sinash maydonlarida va ilg'or xo'jaliklarda to'plangan ma'lumotlarning bahosi beqiyosdir..[2].

Харитографик асосларни тайyorlash. Tuproqni dalada tekshirish ishlarini bajarish uchun xaritografik ma'lumotlarni to'g'ri tanlashning ahamiyati katta, shunki shu asosida tuproq xaritasi va agronomik xaritogrammalar tuziladi. Yirik masshtabda tuproqni tekshirish ishlarini olib borish uchun xaritografik asos sifatida aerofototasvir, topografik xarita va yerdan foydalanishning konturli rejasi ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bular ishchi asos sifatida tayyorlab olinadi. Bu asosga shartli belgilarning ma'lum bir qismigina o'tkaziladi (topografik asosda bo'lgan). Bundan maqsad tuproq xaritasini shartli belgilar bilan to'ldirib yubormasdan, tuproqlarni belgilash uchun ham joy qoldirishdir. Asosga yerdan foydalanish, ekin turlari chegarasi va shartli belgi, suv tarmoqlari, aholi yashash joylari, yo'l va boshqalar tushiriladi. Xarita to'rtburchak ichiga olinib, nomi yoziladi, masshtabi ko'rsatiladi, tuzilgan yili va tashkilotning muxri bosiladi. Tayyorlangan asos bir nesha nusxada ko'paytiriladi bir nusxa fermer xo'jalik egasiga ikkinchi nusxasi tuproqni tekshirgan tashkilotga beriladi va besh yilgacha saqlanadi.[3].

Xulosa. Tuproqni xaritaga tushirish (tuproq kartografiyasi)ning asosiy maqsadi hududdagi tuproqlarni aniqlash, ularning tarqalishi, xossalari va qaysi xo'jalik faoliyatiga mosligini xaritada aniq aks ettirish. Tuproqni xaritaga tushirishda asosan 1:10000, 1:25000, 1:50000 masshtabli gorizontallari bor topografik xaritalardan foydalaniladi. Topografik xaritalarni tanlanganda shunga alohida e'tibor berish kerakki, ularda aniq, yetarli darajada to'liq tafsilotlar rel'ef, sug'orish tarmoqlari, yo'llar, o'rmon polosalari, aholi yashaydigan joylar va boshqalar ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Uchta nusxada topografik xarita bo'lishi tavsiya qilinadi. Shulardan: bittasi dala sharoitida foydalanish uchun; ikkinchisi oxirgi marotaba xaritaga ma'lumotlarni tushirish uchun; uchinchisi rezerv uchun bir nusxa 1:100000; 1:200000 masshtabli kartalardan butun tekshiriladigan noxiya uchun bo'lsa ayni maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunday xaritalar ayniqsa boshlang'ich xudud bilan tanishish davrida va tuproq qoplamida umumiy qonuniyatni o'rganish davrida juda zarur. Tuproq xaritasining

mazmunini to'liq tushirish uchun katta masshtabli topografik asoslardan foydalanish shart, hech qachon tuziladigan tuproq xartasining masshtabidan topografik asosiy masshtabi mayda bo'lmasligi kerak.

Tuproqshunosning qo'lida yaxshi topografik asosi bo'lishi ishni ancha engillashtiradi va tuproq xartasining sifatini yaxshilaydi. Tuproqni xaritaga tushirishning bosh maqsadi har bir hududdagi tuproq resurslarini to'g'ri, ilmiy va amaliy jihatdan baholab, ulardan samarali foydalanish uchun asos yaratishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'.T.Toshbekov, I.U.Urazbayev., „Tuproqni xaritaga tushirish’’ Guliston-2020.
2. Namozov .X. ,SHadraimova K.I. , TurdimetovSH.M. Tuproq bontirovkasi Toshkent ,2004.
3. G'ofurov K. Tuproqni tekshirish va xaritaga tushurish kursi.Toshkent,Tosh.DU,1988.